



GENEALOGIK METODNING ANTROPOGENETIKADAGI O'RNI

Kuramatova Sh.A.

"Tibbiy va gigiyenik jarayonlarni modellashtirish" kefedrasi assistenti

Tilavoldiyeva D.X.

"Tibbiy biologiya va kimyo" kafedrasi assistenti

Ahmadjonova D.O.

Xabibullayev N.U.

Davolash ishi yo'nalishi 1 – kurs talabalari

"Central Asian Medical University" Tibbjiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Antropogenetikaning ham tarixiy ham zamonaviy usuli hisoblanmish geneologik (shajara) usulining mohiyati va uning tibbiyot sohadagi ahamiyati haqida malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Odam genetikasi, Geneologik metod, Proband, Sibs, Mutant gen.

Odam genetikasi odamlar populatsiyasidagi irsiyat va o'zgaruvchanlik hodisalarini, normal va kasallikka sabab bo'luvchi belgilarning nasldan naslga o'tishidagi o'ziga xosliklarni, atrof muhit omillarining ahamiyatini o'rganuvchi fandir. Uning eng muhim qismlaridan biri tibbiyot genetikasi hisoblanadi. Bu fan irsiy kasalliklarni aniqlash, davolash va oldini olish masalalari bilan shug'ullanadi. Odam irsiyatini o'rganishda bir qancha mushkulotlar mavjud. Jumladan, insonlar jamiyatida maqsadga muvofiq bo'lgan nikohga erishish, ya'ni tajribada duragaylash usulini qo'llash mumkin emas. Buning ustiga har bir oilada avlodlar soni kam bo'lib, hozirgi vaqtida o'rtacha 3-4 tadan ortmaydi. Shuningdek, irsiyatchi olim 1-2 tadan ortiq avlodni kuzata olish imkoniyatiga ega emas. Bularidan tashqari, odam kariotipi juda murakkab bo'lib, bog'lanish guruhlari ancha ko'pdir. Ammoo inson populatsiyalari asosan ko'p sonli bo'lib, minglab nikoh juftlari orasidan genetik tahlil uchun zarur bo'lganlarni topish qiyin emas. Odamlarda normal va patologik belgilar yaxshi o'rganilganligi antropogenetik tadqiqotlar uchun qulaylik yaratadi.

Genealogiya usuli – eng universal, oddiy, qulay usul bo'lib, belgining bir nechta avlodda irsiylanishini aniqlashga asoslangan. Usulni amalga oshirish bosqichlari:

1. Ma'lumotlar yig'ish.
2. Shajara (genealogik xarita) tuzish.
3. Shajarani tahlil qilish.
4. Xulosa yozish.





Ma'lumotlar to'plash so'rash, anketalar to'ldirish va shaxsiy ko'rikdan o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Avlodlar shajarasini tuzishni proband haqida ma'lumot yig'ishdan boshlanadi.

Proband – avlodlar shajarasi aniqlanishi kerak bo'lgan, kasal yoki sog'belgini tashuvchi shaxsdir. Probandning aka-uka yoki opa-singillari sibslar deyiladi. Avlodlar shajarasini tuzishda juda puxta ishlash, savollarni aniq va to'g'ri bera bilish vrachdan katta mutaxassislik mahoratini talab qiladi. Shajaraning har bir a'zosi to'g'risida, uning probandga qanday aloqadorligi to'g'risida qisqacha ma'lumot yoziladi, keyin ularni grafik ravishda ifodalanadi. Avlodlar shajarasini tuzishda quyidagi standart simvollardan foydalaniladi. Uchinchi bosqichgacha tuzilgan shajara bat afsil tahlil qilinib o'rganilayotgan belgi yoki kasallik haqida xulosa yoziladi.

Genealogik usuli quyidagilarni aniqlashga imkon beradi:

- Belgingin irsiy yoki irsiymasligini;
- Irsiylanish tipini;
- Mutant genni geterozigot tashuvchilar deb shubhalangan shaxslarni;
- Irsiy kasalliklarning geterogenligini (genokopyyalarni);
- Keyingi avlod prognozini;
- Penetrantlik va ekspressivligini;
- Xromosornalarni xaritalashtirishni;
- Genlarning o'zaro ta'sirini.

Geneologik – shajara metodini dastlab F.Galton joriy etgan. Ushbu metod orqali piru-badavlat, ya'ni bir vaqtning o'zida bir necha avlodi mavjud oilalaming shajarasini tuzish va unda ota yoki onaning ayrim belgi-xossalari, kasalliklarini avloddan-avlodda namoyon bo'lishi o'rganiladi . Bunda bir ota-onadan tug'ilgan avlodlardagi qarindosh-urug' oilalardagi odamlar soni ko'p bo'lishi shart. To'plangan ma'lumotlar statistik jihatdan tahlili qilinadi. Tadqiqot natijasida olingen natijalarga asoslanib qaysi belgi-xossalalar dominant, qaysilari retsessiv, qaysi belgi-xossa genlari autosomalarga, qaysi belgi-xossa genlari jinsiy xromosomalarga birikkan holda irsiylanishi aniqlanadi. Retsessiv belgi va xossalalar geterozigota holatda namoyon bolmagani sababli ularni tahlil qilish birmuncha murakkabroq. Chunki geterozigota erkak va ayol nikohlangan taqdirdagina belgi-xossa gomozigota holatga o'tishi va fenotipda ko'zga tashlanishi mumkin. Qarindoshlar orasidagi nikoh retsessiv belgilarning geterozigota holatdan gomozigota holatga o'tishi va fenotipda namoyon bo'lishi uchun qulay imkoniyat tug'diradi. Qarindoshlar orasidagi nikoh deyarli hamma mamlakatlar aholisi o'rtasida uchraydi. Professor M.E.Lobashevning ko'rsatishicha Hindistonda u 12,9%, Yaponiyada 5,03%,



Gollandiyada 0,13-0,16%, Portugaliyada 1,40%, AQShda (Baltimor) 0,05% ga teng. Yaqin qarindoshlar orasidagi nikoh respublikam izning shahar va qishloqlarida ham tez-tez uchrab turadi. Geneologik metod yordamida odamlarda ko'z rangining qoraligi, qoshlarning enliligi, kipriklamning uzunligi, labning qalnligi, yuzdagi seckillik - dominant, ko'z rangining havorangligi, qoshlarning ensizligi, labning yupqaligi, yuzda sepkilning bolmasligi -retsessiv belgi ekanligi, ya'ni retsessiv holda irsiylanishi aniqlangan. Ko'zlar oralig'ining yaqinligi, ko'zlar kattaligi, og'izning kattaligi, labning do'rdayganligi, burunning kattaligi, sochning jingalakligi oraliq holda irsiylanishi ma'lum bo'lgan. Odamlardagi daltonizm, gemofiliya kasallikkleri jins bilan bog'liq holda irsiylanishi kuzatilgan. Irsiylanish tiplari, ularning xarakterli belgilari.

Autosoma – dominant tipda irsiylanish(A-D)

Autosom alarda joylashgan dom inant genlarga bog'liq. Misollar: sochning jing alak lig i, ko'z qoraligi, m iopiya, b rax id ak tiliy a, polidaktiliya, R hh, IA, IB qon guruhlari va boshqalar. Xarakterli belgilari: 1. Belgi har ikkala jinsda bir xil chastotada uchraydi. 2. Belgi hamma avlodlarda kuzatiladi (vertikal, gorizontal irsiylanadi). 3. Kasal bolaning tu g 'ilish ehtimoli 50% dan 100% gacha. 4. Penetrantligi va ekspressivligiga qarab ayrim avlodlarda kuzatilm asligi mumkin.

Autosoma – retsessiv tipda irslanish (A-R)

Autosomada joylashgan retsessiv genlarga bog'liq. Misollar: albinizm, chapaqaylik, ko'k ko'z, silliq soch, fenilketonuriya, Rhr, 1-qon guruhi va boshqalar. Xarakterli belgilari: 1. Kasallik yoki belgi avlodlarda kam kuzatiladi. 2. Kasallik yoki belgi gorizontal irsiylanadi (ayrim oilalarda ko'p uchrashi mum kin, hamma avlodlarda ham kuzatilmaydi). 3. Qarindoshlar nikohidan kasal bolalar ko'p tug 'iladi. 4. Ayollarda va erkaklarda bir xil chastotada uchraydi. 5. Irsiylanishga penetrantlik va ekspressivlik ta 'sir qilishi mumkin. 6. Kasal ota yoki onadan sog'lom bola tu g 'ilishi mumkin. 7. Sog' geterozigotalardan 25% kasal bolalar tu g 'ilishi mumkin .

X xromosomaga birikkan dom inant irsiylanish (X-D)

Misollar: qandsiz diabet, D vitamini bilan davolanmaydigan raxit, 2- kurak tish iyo'qligi, tish em ali qo'n g 'ir bo'lishi va boshqalar. Xarakterli belgilari: 1. Irsiylanish vertikal tipda kuzatiladi. 2. Ayollar erkaklarga nisbatan ikki baravar ko'proq kasallanadi. 3. Ota kasal bo'lsa qizlari kasal, o'g'llar sog'lom tug'iladi. 4. Ota yoki ona kasal bo'lsa sog'lom bola tug'ilishi mumkin. 5. Sog'lom ota-onalardan sog'lom bolalar tug'iladi. 6. Ona kasal bo'lsa bolalarining 50% kasal tug'ilish mumkin .

X xrom osom agd birikkan, retsessiv (X-R) tipda irsiylanish.





Misollar: gemofiliya, daltonizm, namozshom ko'rlik, miopatiya va boshqalar. Xarakterli belgilari: 1. Erkaklar gemizigotali bo'ladi (X xromosoma bitta bo'lgani uchun) 2. Kasallik otadan o'g'ilga o'tm aydi. 3. Ona kasal bo'lsa uning otasi ham kasal. 4. Ona tashuvchi bo'lsa genni qizlarining va o'g'llarining yarmiga o'tkazadi. Y xrom osom aga birikkan irsiylanish. Misollar: gipertrioxoz, sindaktiliya,. Faqat otadan o'g'ilga o'tadi .

Sitoplazmatik irsiylanish.

Mitoxondriya, xloroplastlar va plazmida genlariga bog'liq. Misollar: odamlarda ko'rish nervi atrofiyasi, mitoxondrial sitopatiya va boshqalar. Faqat onadan farzandlarga o'tadi (o'g'llariga ham, qizlariga ham).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 1.TIBBIY BIOLOGIYA .P.X.XOLOKOVA.Q.QURBONOV A.O.DAMINOV M.V.TARINOVA TOSHKENT ZAMIN NASHR - 2020
2. A.G'AFUROV, A.ABDUKARIMOVA, J.TOLIPOV, O.ISHANKULOV, M.UMARALIYEV,I.ABDURAXMONOVA.2017-YIL.1-NASHRIYOT.
3. Method of hydroponics and historical, and modern. D.X.Tilavoldiyeva M.T.Botirov. Materials of the Republican Scientific-Practical Conference.
4. <https://studfile.net/preview/7901192/page:4/>
5. GEN MUHANDISLIGI – REKOMBINANT DNK TEXNALOGIYALAR USULI. D.X.Tilavoldiyeva, N.U.Xabibullayev, D.O.Axmadjonova.Materials of INTERNASHIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCE FRANCE.
6. www.interonconf.or

